

OGAHIYNING O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA QO'SHGAN HISSASI

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Milliy qo‘shiqchilik” kafedrası

o‘qituvchisi Mardonov Zafar Muzaffarovich

Annotatsiya: *Badiiy so‘zning ma‘no miqyoslaridan keng foydalanish, yangi ma‘no qirralarini topish jihatidan ham Ogahiy Navoiydan keyin “eng ko‘p va eng xo‘b aytqon” shoirlardandir.*

Kalit so‘zlar: *Kuy, navo, g‘azal, san‘atkor, badiiy so‘z.*

OGAHI'S CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF UZBEK CLASSICAL LITERATURE

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

Department of "National Singing".

teacher Mardonov Zafar Muzaffarovich

Abstract: *After Ogahiy Navoi, he is one of the "most and most eloquent" poets in terms of wide use of the meaning scales of the artistic word and finding new aspects of meaning.*

Key words: *melody, navo, ghazal, artist, artistic word.*

Ogahiy xalq orasida ko‘proq lirik shoir sifatida mashhur. Ogahiy “til tiyg‘i tortib, maoni mulkini olgan” mahoratli san‘atkordir, uning badiiy qudrati haqida fikrlashishdan avval, shuni e‘tirof etish lozimki, yosh Muhammadrizoning “til tiyg‘i” Alisher Navoiy mahorat maktabida charxlangan, sayqal topgan. Ogahiy nazmida Navoiydan o‘rganish izlari, ulug‘ san‘atkor ta‘siriga berilish, udan qutila olmaslik, ustozning turli g‘oya va ifodalarni o‘zgacha talqinlarda sharhlash ham ko‘rinib qoladi. Bunday holler shoirning kamchiligi sifatida emas, balki badiiy mahorat qozonish yo‘lidagi dastlabki tajriba, har bir ijodkor tabiiy va qonuniy ravishta boshdan kechiradigan ijodiy jarayon tarzida baholanmog‘I ma‘quldir. Ulug‘ Navoiyga ergashish, uning asarlaridan iqtibos olish, fikr-g‘oyalarni sharhlash barcha Nvoiyga izdosh o‘zbek mumtoz shoirlari qatori Ogahiyga ham fazlu iftixor sanalgan:

Ogahiy kim topqay erdi sozi nazmindan navo,

Baxrga gar yo'qdur Navoiyning navosidan sango.

Badiiy so'zning ma'no miqyoslaridan keng foydalanish, yangi ma'no qirralarini toppish jihatidan ham Ogahiy Navoiydan keyin keyin "eng ko'p va eng xo'b aytqon" shoirlardandir. U ataylab badiiy san'at qo'llamaydi, uning qalamiga tushgan so'z san'at bo'lib muxrlanadi. Mazkur baytda kamdan kam san'atkor yaratishga muyassar bo'lgan nodir ma'naviy san'at – iyhom yuzaga kelgan. "So'z" - til birligi, kalmia ma'nosida qo'llangani aniq ravshan anglashilib turibti. Shu ma'no bilanoq baytdan tugal mazmun chiqadi. Iyhom san'atining sehri shundaki, shoir forsiy tildagi "so'z" ning ma'nolarini ham bir yo'la mujassamlashtirilgan. "So'z"ning yonish, kuyish, harortli bo'lsa ma'nolari yashirin ifodalangan. Aslida shoirning bosh muddaosi "so'z"ning shu ma'nolardan kelib chiqadi. Iyhomning xosiyati shunda.

Bu o'rinda ham bayt badiyatini iyhom san'ati yuzaga keltirgan. Bunda san'at "so'rsam" so'zida bo'lib, uning ko'rinib turgan ma'nosi "so'ramoq" pinhona ma'nosi esa "bo'sa olmoqdir." Bilmagam kishi yuzaki ma'nonigina tuyin ham zavqlanishi mumkin. Ziyrak kitobxonh esa badiiy so'zning ham zohiriy, ham botiniy ma'nolarini tiyib, ikki xissa ta'sirlanadi. Badiiy fikrni, xususan, pandnoma mazmunidagi fikrni quruq va yalang'och aytish Sharq adabiyotida rasm bo'lmagan. Aks holda, adabiyot hayotiylik, ta'sirchanlik, donishmandlik kasb etolmasdi. Ushbu adabiyot uslubiga xos xususiyatlartidan biri qiyosiy-istioraviy yo'sinni qo'llab, aytilachak har bir gapni hayot va tabiat tarozisida tortib aytishdir. Shunday uslub taqozosi tarzida tamsil, husni ta'til singari badiiy san'atlar vujudga kelgan. Tamsil san'ati talabiga ko'ra, shoir birinchi misrada hurmat , odab to'g'risidagi fikrini ifodalaydi va ikkinchi misrada shu fikrning hayotiy isboti tariqasida tabiatning hikmatli bir holatining misol keltiradi. Husni ta'til san'ati8da ham shunga yaqin usul qo'llaniladi. Shoir badiiy fikrni chiroyli asoslash yo'lidan boradi:

Kelgil, ey o‘tlug‘ ko‘ngul, eski chopong‘a qone o‘l,

Kim, hamisha jismig‘a kuldand qilur axgar libos.

Ushbu baytni nochor holda, eski chopon yopishib yashagan shoirning o‘z-o‘ziga tasallisi o‘rnida ham qabul qilish mumkin. Ammo undan elga qaratilgan hokisorlikka, kamtarlikka davit ham anglashib turibti. Ikkinchi misrada hammaga ma‘lum va mashhur hayotiy lavha – cho‘g‘ning kul bilan qoplanganligi aytilgan fikrga juda mutanosib chiroyli badiiy asos tarzida keltiriladi. “Ta‘viz ul-oshiqin” XIX asrda gullab-yashnagan Xorazm adabiy muhitning go‘zal gultojidir. Undagi asarlar til xususiyatlariga ko‘ra tushunrli, soda, jozibali, xalqchildir. Bu soddalik, ayniqsa, Xorazm adabiy muhitning ulug‘ rahnomosi, Ogahiyning ustoz Sher Muhammad Munisning “Munis ul-ushshoq” devonidagi asarlar qiyosida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Munis adabiy maktabian ilhon va rivoj topgan Ogahiy ijodi tobora jo‘shqin va tiniq tus olgan. Uning har bir mavjida o‘zgacha joziba jilovlanaveradi. Masalan, irsoli masal san‘ati na‘munalariga uchrar ekansiz, shoirning xalq og‘zaki ijodi boyliklarini ne chog‘li o‘zlashtirgani va adabiy muddao ifodasi yo‘lida ulardan qanchalik o‘rinli foydalanish mahoratiga ishonch hosil qilasiz:

Xunob ichar vaqtimda xush kelding, ko‘ngulkim, xalq aro,

Yaxshi masaldurkim: “Kelur yaxshi kishi osh ustina”.

Ogahiydek mukarram zotlar tengsizlik va manfaatparazlik ustuvor zamonda karam ko‘rmay, “ahli diramg‘a” xor bo‘lib yashagach, yana bir sherda qoyilmaqom aytilgandek Ogahiy badiiy so‘z imkoniyatlaridan bahramand bo‘lgani sher va ixlosmandlarini bahramand etganidan ogoh bo‘ldik. Ammo mumtoz adablarimiz tasaruffida yana shunday imkoniyat ham bor ediki, ular eski o‘zbek alifbosidagi har bir harf shaklidan badiiy ta‘svir vositasi sifatida

foydalanish baxtiga muyassar edilar. Ogahiy asarlari badiyatida ham alifbo muhim o‘rin tutgan.¹

Ogahiy o‘zbek mumtoz adabiyotining badiiy timsollari tizimini muakammal o‘zlashtirgan va ularni ma’no va shakily tomondan takomillashtirishga harakat qilgan shoirdir. Birgina chumoli timsolining takomil tarixiga nazar solaylik. An’anaviy chumoli yoki mo‘r obrazining butun o‘zbek mumtoz shariyati, jumladan, Navoiy nazmda qo‘llanish miqiyoslari, ma’no doirasi, badiiy vazifasi muhtaram o‘quvchiga ayon. U- kamtarlik, xokisorlik, mehnatkashlik, sahovatpeshalik timsoli. Uning barcha sifatlari chumoli va mo‘r atamalarida mujassam edi. Obrazning ma’no ufqini kengaytirish maqsadida Ogahiy oddiy “mo‘r” emas, “xasta mo‘r” – cho‘loq chumoli timsolidan foydalanadi:

Yo‘ki, g‘alat ayladim, o‘ylakki, bir xasta mo‘r

Chekkusi poyi malax tuhfa Sulaymon sori.

“Xasta” sifati orqali shoir chumoli obrazida ulug‘vorlik, olimhimmatlik fazilatlarini mujassamlashtirgan. Ogahiy talqinidagi chumoli jismi ushoqqina, hasta bo‘lishiga qaramay, Sulaymonga sovg‘a qilish uchun o‘z jussasidan necha barobar kattalikdagi maxal- chigirtka oyog‘ini sudrab, bormoqda. Sulaymonga loyiq tuhfa olib borish ma’sulyati, or-nomus, himmatning zo‘ri xasta, zaif chumoliga g‘ayrat-shijoat, ulug‘vorlik bag‘ishlangan. Chumoli bilan Sulaymon munosabatlaridagi qarama-qarshilik an’anaviy hol edi. Chumolining hasta bo‘lishi va tuhfa uchun ulkan chigirtka oyog‘ini tanlashi mavjud badiiy ziddiyatni yanada kuchaytirgan. Ogahiyning adabiy merosi xalqimiz ardog‘idagi mo‘tabar manaviy hazina. Uning qadr-qimmatini zamon o‘tgan sari ortib boradi. Uning nasihatimiz, ma’shuqona, oshiqona, shahdomuz g‘azallari, shavqangez qasidalarini, shakarrez muxammaslari, ayniqsa, bugungi tarixiy davrda insoning manaviy olamini qayta

¹ Tojinazarova H. Ogahiy lirikasining badiiy-lisoniy tahlili // Til va adabiyot ta’limi, 2010. –No6 –B.22-25.6. O.,zbek shevalari morfologiyasi. –Toshkent, 1984. –B.47.7.

ko‘rishda, milliy mustaqillik mafkurasini yaratishda jondek aziz, suv va havodek zarur. Zamondoshlarimiz va kelgusi avlod “Ta’viz ul-oshiqin”dagi durdona asarlarni, Ogahiy orzulaganidek, “oshiqlar tumori yanglig‘ ixloslari bo‘yunlarig‘a osib, izzat bila asrasalar”, bu muqaddas tumor ularni manaviy-moddiy ofatlardan omon saqlaydi, kamolot sari eltadi. Shubhasiz Ogahiy ma’lum darajada an’anaviylikni hush ko‘rgan. Negaki o‘tmish adabiyotimizdagi ko‘plab boqiy kitoblarning yaratilishiga o‘z davrining homiy va rahnamo hukmdorlari sabab bo‘lganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojinazarova H. Ogahiy lirikasining badiiy-lisoniy tahlili // Til va adabiyot ta’limi, 2010. –No6 –B.22-25.6. O,,zbek shevalari morfologiyasi. –Toshkent, 1984. –B.47.7.
2. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –Toshkent, 2000. –B.
3. Ogahiy she‘riyatidan. Toshkent. 1983. 120 b.8. 3. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. Toshkent. O,,zbekiston FA nashriyoti. 1953. 238